

***Jo'rayeva Munojat Abdumannopovna***

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani*

*Erkin Vohidov uy –muzeyi mudirasi*



**1936-2016yil**

**Erkin Vohidov - o'zbek  
adabiyotining yorqin namoyondasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining atoqli adibi, Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, uning ijod mahsuli, hayot foliyati, haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari Erkin Vohidovning uy-muzeyi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Zamonaviy o'zbek milliy adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri Erkin Vohidov ijodida g'azal, qasida, muxammas kabi janrlarshakllanib boradi. U mumtoz adabiyotning bu sohadagi tajribalarini boyitish, mukammallashtirishga intiladi. Erkin Vohidov badiiy mahorati o'sib, kamol topgan, chuqur falsafiy umumlashmalar darajasiga ko'tarilgan ijodkordir. U O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramonidir. Zamonaviy o'zbek milliy adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri Erkin Vohidovdir. U 1936yilning 28 dekabr sanasida, Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. Otasi CHo'yanboy Vohidov urush so'ngida frontdan Toshkentga qaytib kelib, shu yerda vafot etgan. So'ng onasi Roziyaxon Vohidova (Sohiboyeva) ham vafot etadi. Bo'lg'usi shoir esa tog'asi Karimboy Sohiboyev tarbiyasida bo'ladi. Erkin Vohidov o'rta ma'lumotni Toshkentda oladi. 1960 yilda Toshkent Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatib, avval sobiq «Yosh gvardiya», so'ng G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir, bosh muharrir va rahbar ham bo'lib ishlaydi. «Yoshlik» jurnaliga muharrirlik qiladi. U mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining

xalqaro aloqlar va munosabatlar qo‘mitasi rahbari sifatida Respublika ijtimoiy hayotida faol ishtirok etadi. Hozir u O‘zbekiston Senati a’zosi.

### Faoliyati

Uning birinchi she’ri 14 yoshida, 7-sinfda o‘qib yurgan kezlarida chop etilgan. U 16 yoshga kirganda «Manzara» nomli she’ri bosildi. Unda tabiat go‘zalligi samimiy tasvir etilgan bo‘lsa, ko‘p o‘tmay, u do‘stlariga qarata:

Istaymanki, xurramlik bo‘lsin,

Sho‘x qahqaha bog‘lasin qanot.

Kuy shalola yanglig‘ quyilsin,

Qo‘sish bo‘lib tuyulsin hayot, -deb, ijodning katta karvoniga o‘zining yaxshi niyati, katta umidi, pokiza qalbi bilan kirib keldi.

Shoirning «Tong nafasi» (1961), «Qo‘sishig‘im sizga» (1962), «Aql va yurak» (1963), «Mening yulduzim» (1964) kabi to‘plamlariga kirgan ko‘pchilik she’rlarida uning badiiy tafakkurida ham, poetik uslubida ham o‘sish, ulg‘ayish sezila boshlaydi. Endi shoir oddiy hayotiy tasavvurlardan ancha chuqur fikrlash sari ko‘tariladi. Ayniqsa, «Fursat - oltin», «Inson» kabi she’rlarida shoirning hayot haqidagi tasavvuri yana ham chuqurlashadi.

U inson haqida madhiya o‘qib: «Yerni go‘zal qilgani sayin, Go‘zal bo‘lar o‘zi ham inson», degan xulosaga keladi. Mehnatni, go‘zallikni, ezgulikni ulug‘laydi. Xuddi shu davrda shoir ijodida yana bir muhim intilish paydo bo‘la boshlaydi. U endi mumtoz adabiyotimiz an'analaridan oziq izlab topadi. Uning «G‘uncha», «Azganush», «Fuzuliy haykali yonida» kabi she’rlari bu boradagi dastlabki dadil izlanishlari edi. Binobarin, shoir ijodida janr va uslub rang-barangligi qatori mavzular doirasi ham kengayadi. «Chirchiq», «Do‘stim», «Olimlarning rafiqalariga» kabi she’rlarida shu holat ko‘zga yaqqol tashlanadi. E.Vohidov ijodida g‘azal, qasida, muxammas kabi janrlar shakllanib boradi. U mumtoz adabiyotning bu sohadagi tajribalarini boyitish,mukammallashtirishga intiladi. Ayniqsa, «Yoshlik» (1969) devoniga kirgan she’rlar bu jihatdan e’tiborlidir.

Shoir xuddi shu davrdan boshlab dunyo kezdi, dunyonи ko‘rdi, dunyonи tanidi. Ana shu taassurotlari asosida «Tirik sayyoralar» (1978), «Sharqiy qirg‘oq» (1981) kabi yangi she’riy to‘plamlarini tashkil etgan she’rlarini yaratdi. Inson taqdiri, uning baxti va kelajagi shoir ijodining mavzuiga aylanadi. Uning «Kelajakka maktub» (1983), «Yaxshidir achchiq haqiqat» (1992) to‘plamlariga kirgan she’rlarida buyuk, pokiza, haqgo‘y va bedor insonni kamol toptirish g‘oyasi yetakchilik qiladi. Xuddi shu o‘rinda faylasuf shoirning kelajak haqidagi bashorati o‘zining yorqin ifodasini topgan

satrlarini chetlabo‘tolmaymiz. Uning «Vatan istagi», «Devona haqgo‘y», «Iztirob» kabi she'rlari bu jihatdan alohida ahamiyatli. Shoир «Vatan istagi» she'rida sobiq SSSR mavjudligidayoq:

Bu vatandan bir Vatan qurmoqni istaydir ko‘ngil,  
O‘zni ozod qush kabi ko‘rmoqni istaydir ko‘ngil, -  
deya bo‘lg‘usi mustaqil Vatan - O‘zbekistonni ko‘rishni istadi.

Shoirning «Buyuk hayot tongi» (1960), «Orzu chashmasi» (1964), «Nido» (1964), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Quyosh maskani» (1972), «Ruhlar isyonii» (1980), «Ko‘hinur» (1982) kabi liro-epik asarlari, qolaversa, «Oltin devor» va «Istambul fojiasi» kabi she'riy dramalari katta ijodiy mehnatining samaralaridir. Ana shunday samarali ijodi Erkin Vohidovga el-yurt e'zozini olib keldi. U tavalludining 60 yilligi munosabati bilan «Buyuk xizmatlari uchun» (1996) ordeni bilan taqdirlandi. Shoirning to‘rt jildlik «Saylanma asarlar»i nashrdan chiqdi. Xullas, Erkin Vohidov badiiy mahorati o‘sib, kamol topgan, chuqur falsafiy umumlashmalar darajasiga ko‘tarilgan ijodkordir. U O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramonidir.



O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Voxidovning 80 yillik yubileyini keng nishonlash to‘g‘risida Farg‘ona viloyati hokimining 2016 yil qaroriga asosan Erkin Voxidov uy-muzeyi tashkil etilgan. Muzey binosi 1996 yilda maxsus qurilgan. Muzeyda O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Voxidovning hayoti va ijodi ko‘rsatilgan. Muzey ekspozitsiyasini xronologik tartibida Erkin Voxodovni tug‘ilgan joyi, bolaligi, o‘sish davri, xayoti, birinchi asari, shoirni shakillanishi, yozuvchi, dramaturg, satirk va tarjimon faoliyati aks etirilgan. Muzeyda 500 donadan ko‘proq eksponatlar mavjud. Erkin Voxidovning xayoti davomida o‘zi foydalangan shaxsiy noyob buyumlar bilan ekspozitsiya boytilgan. Bular Erkin Voxidov muxlislari tomonidan berilagn kitoblar, buyumlar, oilaviy fotosuratlar, kiyim-kechaklar va suvinerlardan iborat.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, qalbida vataniga bo’lgan muhabbat cheksiz bo’lgan, insonning farovon hayotini har narsadan ustun ko’radigan, shuningdek, muhabbat borasida dengizday qaysar, ummondek cheksiz, tog’lardek ulug’vor bo’lgan insonni o’z umrining qahramoni deyish mumkin. Erkin Vohidov ham shunday insonlardan edi desak yanglishmagan bo’lamiz. Mustaqillikka erishib o’zligini, o’zbegini yaratayotgan xalqimiz esa bunday insonlarni ulug’lashi tabiiy va mantiqiy holdir. Erkin Vohidovning hayot yo’li, yaratgan asarlari va ulardagi yetakchi g’oyalar har bir inson qalbida ezgu fikrlarga yondosh tarzda yashashiga ishonamiz.

*Bu qasidam senga xalqim oq sut-u, tuz hurmati,  
Erkin o’g’lingman qabul et O’zbeginim jon O’zbeginim.  
(Erkin Vohidov)*